



Dildora QOSIMOVA,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent v.b.

E-mail:dildorak76@mail.ru

AJOU universiteti o'qituvchisi, PhD Y.Babelbayeva taqrizi asosida

### STRATEGIES FOR CORRECTING STUDENTS' ERRORS IN WRITTEN SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

The article discusses the theoretical and practical foundations of the phenomenon of errors in written speech, the criteria and types of errors in speech, and the errors that students make in written and oral speech due to interference.

**Key words:** error phenomenon, interference, written speech, written assessment, foreign language.

### СТРАТЕГИИ ИСПРАВЛЕНИЯ ОШИБОК СТУДЕНТОВ В ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические основы явления ошибок в письменной речи, критерии и виды ошибок в речи, а также ошибки, которые студенты допускают в письменной и устной речи вследствие интерференции.

**Ключевые слова:** явление ошибки, интерференция, письменная речь, письменное оценивание, иностранный язык.

### TALABALARNING CHET TILDA YOZMA NUTQIDA UCHRAYDIGAN XATOLARNI TUZATISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada yozma nutqda uchraydigan xatolar fenomeni nazariy amaliy asoslari, nutqda xatoni anglashni mezonlari, turlari, interferensiya tufayli talabalar yozma va og‘zali nutqda uchraydigan xatolar muxokama etilgan.


**Kalit so‘zlar:** xatolar fenomeni, interferensiya, yozma nutq, yozma baho berish, chet til.

**Kirish.** Tilshunoslarning nutqdagi xatolar fenomeniga bo‘lgan qiziqishlari XIX asrning ohirida paydo bo‘ldi. O‘sha davrda olimlar asosan nutqda va uni qabul qilishdagi xatolarni tasvirlab beruvchi materiallar yig‘ish bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lganlar. XX asrning birinchi yarmida xatoga nutq jarayonida uchraydigan tabiiy hodisa degan qarashlar yuzaga kela boshladi, xato qilish deganda til adabiy normasining ma‘lum sabablarga ko‘ra buzilishi nazarda tutiladi.

Respublikamizda oliygohlarda xorijiy tajribalar asosida ko‘p tillilik muhitida tillarni o‘rganish, talabalarning interferentiv qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv mazmunini xalqaro ta‘lim standartlari asosida takomillashtirish, ta‘lim muassasalarining moddiy texnika bazasi kengaytirishning me‘yoriy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ko‘p tillilik muhitida talabalarning interferentiv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Keyingi izlanishlarda olimlar o‘z oldilariga chet tilda nutqda xatolar kelib chiqishi va ularni bartaraf qilish mexanizmlarini o‘rganish vazifasini qo‘ydi. O‘z o‘zidan chet til o‘qitishda an‘anaviy ta‘limda xatoga “chet tilda to‘g‘ri dasturlangan fikrni bayon qilishda til vositalarini noto‘g‘ri tanlash oqibati” deb qaralgan [2].

Biroq N.Kondakova o‘zining dissertatsiya ishida aytib o‘tganidek XX asrning ohirigacha “xato” ga “norma”ning Z.M.Tsvetkova xatolarini quyidagi turlarga ajratadi[5] (1-rasm):



1-rasm. Xatolar turlari.

Ilmiy adabiyotlarda an'anaviy ravishda xatolarni til interferensiyasi tufayli kelib chiqadigan bir guruh xatolar keltiriladi. I.V. Gradova ta'kidlashicha ona tili va o'rganilayotgan chet til tizimida o'hashliklar qancha kam bo'lsa interferensiyani kelib chiqish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi. Shu interferensiya sababidan talabalarning chet tildagi nutqida xatolar kelib chiqaveradi [6]. Ter-Minasova fikricha til interferensiyasi talabalarda chet tilda turg'un birikmalarni ishlatishda alohida qiyinchiliklar tug'diradi: "Ona tilidagi odatiy so'z birikmalarini

chet tilga o'girish talabalar uchun yengib o'tilishi qiyin bo'lgan to'siqlardan biridir, shu so'z birikmlarni notog'ri talqin qilish orqali talaba chet tilda mavjud bo'lmagan so'z birikmalarini yaratib olishi mumkin [7].

T.E. Kles tillararo interferensiya tufayli kelib chiqadigan xatolarni jiddiy deb hisoblaydi, chunki ular fikr qilish darajasida bo'ladi. Til ichki interferensiyasi sababli yuzaga keladigan xatolarni yengil xatolar deb hisoblaydi, chunki ular fikrni ifoda qilayotgan paytning o'zida paydo bo'ladi [8].

Tarqalish doirasiga ko'ra O.G. Polyakov 1) fonetik, 2) grammatik, 3) leksik va 4) stilistik xatolarga ajratadi. Bundan tashqari til birliklari darajasidagi xatolar 1) uning shaklida, 2) uning ma'nosida, 3) uning qo'llanilishida, 4) uning to'g'ri yozilishida kelib chiqishi mumkin [9]. Fikrimizcha, xatolar yana lingvistik mezonlarga ko'ra ham kelib chiqishi mumkin, ularga 1) organik xatolar, 2) morfologik hamda sintaktik xatolar kiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shunday qilib biz xatolar tushunchasi mohiyatini, talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolar tasnifini turli hil yondashuvlarini ko'zdan kechirdik. Endi esa talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolarni tuzatish strategiyalarini ko'rib chiqamiz.

Talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolarni to'g'rilashga qaratilgan yozma baho berish (feedback) haqida batafsil o'tib o'tamiz. R. Ellis xatolarni ko'rsatib berish hamda ularni to'g'rilab berishning quyidagi strategiyalarini tavsiya qiladi:

- bevosita yozma baho berish (direct feedback)
- bilvosita yozma baho berish (indirect feedback)
- metalingvistik yozma baho berish (metalinguistic feedback)
- diqqat qaratilgan yozma baho berish (focused feedback)
- diqqat qaratilmagan yozma baho berish (unfocused feedback)
- elektron yozma baho berish (electronic feedback)
- qayta shakllantirish (reformulation).

Yozma baho berish (feedback) talabalar yozuvidagi xatolarni to'g'rilash pedagog tomonidan til birliklarini ishlatishda qilgan xatoning to'g'ri bo'lgan variantini ko'rsatish hisoblanadi. Bu quyidagi yo'llar bilan bajarilishi mumkin:

- keraksiz bo'lgan so'z, so'z birikmasi yoki morfemani o'chirib tashlash orqali;
- yetishmagan so'z, so'z birikmasi va morfemani qo'yish orqali
- noto'g'ri matn yoniga yoki tepasiga to'g'risini yozish orqali.

#### **a a the was**

A dog stole | bone from | butcher. He escaped with having | bone. When he

#### **a saw the**

going through | bridge over the river he found | dog in the river.

J. Lambertning ta'kidlashicha bunday tog'rilovchi yozma baho berishning asosiy afzalligi shundaki, talabaga matnga uni yaxshilash uchun qanday o'zgartirishlar kiritish muhimligi aniq va ravshan ko'rinib turadi [10]. D. Ferris va B. Roberts qat'iy ishonch bilan shuni aytishadiki, yozma baho berishning bunday turi chettil organishning ilk bosqichlarida turgan talabalar uchun mos keladi [11]. I. Shin izlanishlari natijalariga ko'ra baho berishning ushbu

turi Grammatik ko'nikmalarni shakllanishda juda qo'l keladi, aniqroq qilib aytganda, artikllarni ishlatishda [12] muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta bevosita to'g'rilovchi baho berishning o'ziga hos kamchiliklari ham yo'q emas. R. Ellisning fikricha ushbu baholash usuli talabadan faol tafakkur qilishni talab qilmaydi – xatolarni to'g'rilashda o'qituvchi hamma ishni matn tayyor to'g'rilab qo'yish orqali o'zi bajardi [13]. Bevosita to'g'rilovchi baho berishdan farqli o'laroq bilvosita baholash usulida faqatgina xato qilinganlik ko'rsatib o'tiladi holos, u o'qituvchi tomonidan to'g'rilanmaydi. Pedagog bu bilan xatoning aniq joyini ko'rsatib o'tish kerak yoki kerak emasligi haqida o'zi qaror qabul qiladi, masalan noto'g'ri tanlangan so'z yoki so'z turkumining tagiga chizish bilan, yoki xatoga yo'l qo'yilgan qatorni o'zining ko'rsatib qo'yish orqali topshiriqni yana ham murakkablashtirish mumkin. Shunday qilib, baholashning ushbu turining afzalliklaridan biri qilib J. Lalande shuni aytadiki, ushbu usul til o'rganishda juda muhim sanalgan faollik va onglik kabi umumdidaktik prinsiplarga to'la javob bera oladi.

A dog stole X bone from X butcher. He escaped with Xhaving Xbone. When the

dog was going X through XX bridge over X river he found X dog in the river.

X- missing word

X-X – wrong word

Shuni aytib o'tish joizki, bilvosita baholash usuli qo'llanilganda talaba qaerda xato qilganini va uni qanday qilib tuzatish mumkinligini bilmasligi ham mumkin. Ushbu baholash usulini qo'llashdan oldin pedagog talabaning o'z xatosini to'g'rilay olishi uchun yetarli bilimlari va manbaalari bor ekanligiga ishonch qilgan bo'lishi zarur. Bundan tashqari, talabaga o'z xatosini aniqlash, uning turini topish va uni mustaqil ravishda to'g'rilash imkoni berilgan paytda pedagog kelgusida bu ishni qayta ko'rib chiqishi va talaba o'z oldiga qo'yilgan topshiriqni uddalaganiga ishonch hosil qilishi zarurligini yodda tutishi lozim bo'ladi.

Xatolarni belgilashning mahsus belgilari odatda qisqartmalar yoki abbreviaturalar ko'rinishida bo'ladi, ular daftar chetlari yoki matn ustiga qo'yiladi. Metalingvistik baho berishning ushbu usuli bevosita hamda bilvosita shaklga kira olishi mumkin- pedagog bunda xatoni o'zi to'g'rilab qo'yishi yoki xatoni shunchaki ko'rsatib qo'yishi mumkin.

#### **1-jadval. Xatolar turini ko'rsatishda mahsus belgilardan foydalanish**

<b>Art WW art</b>
A dog stole bone from butcher. He escaped with having bone. When the
<b>The the</b>
dog was going through bridge over river he found dog in the river.

Art.x3, WW A dog stole bone from butcher. He escaped with having bone.

Prep, art. When the dog was going through bridge over river he

Art found dog in the river

Xatolarni ko'rsatishda belgilardan foydalanishning samaradorligini o'rganish maqsadida olib borilgan izlanishlarda J. Hattie til o'rganayotgan talabalar guruhida tajriba o'tkazildi, va shunday hulosaga keldiki xatolarni bevosita to'g'rilash usulidan farqli o'laroq ularni belgilar yordamida ko'rsatib o'tish aynan o'sha yozma topshiriq qaytadan yozilganda xatolarning ancha kamayishiga olib kelgan [14]. Boshqa izlanishlarda ham xatolar turlarini belgilardan foydalangan holda ko'rsatib berish chet til o'rganayotgan talabalarning yozma savodxonligini oshirishda ijobiy natijalar ko'rsatadi.

Ba'zi horijiy olimlar ta'kidlashicha barcha turdagi xatolarni to'g'rilash (ayniqsa agar ular ko'p bo'lmasa) talabalarni hafa qilishi yoki demotivatsiya qilishi mumkin. Ular pedagoglarga yozma ishdagi xatolarni tanlab to'g'rilashni va talabalarni ayni vaqtda dolzarb bo'lgan xatolarga diqqatini qaratishni tavsiya qilishadi. R. Ellis va I. Shin ikki hil tajriba guruhlarida izlanish olib

bordi, talabalarining birinchi guruhi to'g'rilovchi baholash va artikllarni qo'llashdagi xatolarga qaratilgan baholash usuli qo'llanildi, ikkinchi guruha esa hech qanday to'g'rilovchi baholash usuli qo'llanilmadi. Olimlar shunday hulosaga keldilarki ikkala guruh talabalarining yozma savodxonligi baravar ko'tarildi va diqqat qaratilgan hamda diqqat qaratilmagan baholash usullari baravar ravishda samarali bo'lib chiqdi [13].

**Tahlil va natijalar.** Shunday bo'lsada hamma olimlar ham diqqat qaratilgan baholash usulini to'laqonli foyda beradi deb aytmaydilar. Xatolarni aniqlash va baho berishning bunday usulidan foydalanilganda talabalar ba'zi bir xatolarga ko'z yumib ketsa bo'laveradi degan hulosaga kelib qolib, o'zining noto'g'ri variantini to'g'ri ekan deb qabul qilib olishi mumkin. Bunday holatlarda eng to'g'ri yo'l xatolarni jiddiy va uncha jiddiy bo'lmagan tularga bo'lib olish, hamda talabalarga ularni qanday qilib to'g'rilash mumkinligi tushintirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayta shakllantirish (reformulation) – to'g'rilovchi baholashning navbatdagi turi hisoblanadi, bunda pedagog matnning bir bo'lagi yoki so'z birikasini to'g'rilangan variantini qayta yozib chiqadi.

Hozirgi paytda chet tilga o'rgatishni optimizatsiya qilish uchun turli hildagi kompyuter va mobil texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. *Mark My Words* talabalarining yozma savodxonligini tekshirishning avtomatlashgan holda tekshirishni amalga oshiruvchi ilk kompyuter dasturlaridan biridir. Ushbu kompyuter dasturim o'zida 100 ga yaqin ingliz tilini chet til sifatida o'rganayotgan hitoy talabalarida tez uchraydigan leksik – grammatik xatolarni jamlagan “ombor” hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur tizim tayyor metalingvistik izohlardan

foydalanish imkonini yaratib beradi, va so'zsiz pedagog vaqtini tejaydi va ishini yengillashtiradi.

Shuni aytib o'tish muhimki, pedagog talabalar ishlarini baholashning elektron tizimidan foydalanish va yozma berish orqali o'zidan yozma ishlarni to'g'ri ekanini biluvchi yagona manbaa – “arbitr” rolini olib tashlaydi [13]. Bu esa o'z o'zidan baholash jarayonining ishonchligini va obyektivligini oshiradi. Bugungi kunda ko'pgina chet tilni baholovchi halqaro imtihonlarni tashkillashtiruvchilar yozma ishlarni tekshirishda maksimal darajada avtomatlashgan tizimdan foydalanishi bejiz emas (masalan TOEFL imtihoni, Pearson kompaniyasi testlari).

**Xulosa va takliflar.** Biroq shuni ham esda tutishimiz lozimki, talabalar yozma ishlarni avtomatlashgan tekshiruvini amalga oshiradigan texnologiyalar va uskunalar odatda tekni bo'lmaydi va hamma pedagogni ham uni olish imkoni bor emas. Bundan ko'rinadiki yozma ishlarni qo'l bilan tekshirish va baholash va yozma izoh berish pedagogning zarur bo'lgan mahoratlaridan biridir va bu mahorat pedagog tayyorlovchi kasbiy programmalar doirasida rivojlantirib boriladi.

Shunday qilib pedagogik yozma baho berish biz tomonimizdan pedagogik mulqotning baholash, o'rgatish, to'g'rilash, boshqarish, stimuly berish va ta'lim berish vazifalarini bajaruvchi zarur komponenti sifatida qaraladi. Yozma pedagogik baho berishga talabalarni chet tilda yozma ishlarni tekshirish natijasida biz tomonimizdan pedagogning chet tildagi yozma natijaning kasbga yo'naltirilgan janri sifatida qaraladi va ushbu dissertatsiya ishi pedagogning kasbiy – kommunikativ malakalarini rivojlantirishning o'ziga hos modelini ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – №6 (766) -70-modd. – T.: Adolat, 2017. – B. 38.
2. Бурденюк, Г.М., Григорьевский, В.М. Языковая интерференция и методы ее выявления. - Штинца, 1978.
3. Кондакова, Н.Н. Методика предупреждения ошибок в иноязычной письменной речи (английский язык, языковой вуз) : дисс. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Кондакова Наталья Николаевна. - Тамбов, 2006. — 184 с.
4. Чойбонова, Б.М. Языковые ошибки в речи обучающихся на начальном этапе интенсивного обучения английскому языку :Метод активизации личности и коллектива : дисс. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Чойбонова Бэла Матвеевна. — Москва, 2004. — 261 с.
5. Цветкова, З.М. Советская методика преподавания иностранных языков.
6. Материалы IV-го Международного методического семинара преподавателей русского языка стран социализма. — М.: МГУ, 1964.
7. Градова, И.В. Норма, мультиформа и подготовка разнопрофильных специалистов / И.В. Градова // Язык и карьера. Материалы науч.-практ. конференции 28-29 марта 2002 года / Отв. ред. И.В. Градова. — Архангельск: Поморский госун-т, 2002. — С. 35-36.
8. Тер-Минасова, С.Г. Словоупотребление в научно-лингвистическом и дидактическом аспектах. Учебное пособие / С.Г. Тер-Минасова. — М.: Высшая школа, 1981. — 144 с.
9. Клец, Т.Е. Обратная связь как средство диагностики педагогических результатов иноязычного интерактивного общения // Труды Псковского политехнического института. — 2011. — №15. — Том 1. — С. 82-87.
10. Поляков, О.Г., Ильина, О.К., Петрова, А.А. Компетентностная модель обучения иностранному языку профессии на этапе магистратуры (на примере курса английского языка для журналистов) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота. — 2019. — №Т.12 — Вып. 5. — С. 403-408.
11. Lambert, J. Written Corrective Feedback. Effective for Students, Timesaving for Teachers// Cambridge University Press ELT [Youtube]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=AZz3Td-Hc4k&t=1551s> (дата обращения: 27.11.2020).
12. Ferris D., Roberts B. Error feedback in L2 writing classes: How explicit does it need to be?/D.Ferris, B.Roberts //Journal of second language writing. — 2001. — Т. 10. — №. 3. — С. 161-184.
13. Sheen, Y. The effect of focused written corrective feedback and language aptitude on ESL learners' acquisition of articles/Y. Sheen //Tesol Quarterly. — 2007. — Т. 41. — №. 2. — С. 255-283.
14. Ellis R. A typology of written corrective feedback types //ELT journal. — 2008. — Т. 63. — №. 2. — С. 97-107.
15. Hattie, J., Timperley, H. The power of feedback //Review of educational research. — 2007. — Т. 77. — №. 1. — С. 81-112.